

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARIGA QARSHI JINOYATLAR

Umurzakova Nargisa Muxtarovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

"Gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi, ilmiy rahbar

+998990129077 nargisau71@gmail.com

Habibullayeva Sarvinoz Sobirjon qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Huquq va turizm" fakulteti

"Yurisprudensiya" yo'nalishi 1-kurs talabasi

998933062660 sarvinozhabibullayeva010@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari va ushbu huquqlarga qarshi oiladagi, jamiyatdagi jinoyatlar, ularni kelib chqish sabablari va bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan shart-sharoitlar va ushbu huquqbazarliklarni oldini oldini olish maqsadida maktab psixologlari, oiladagi ota-onalarning o'rnnini bosuvchi shaxslar, mahalla yoshlar yetakchilari va inspektorlarining birgalikda faoliyat yuritishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar, huquqbazarlik, jinoyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются права несовершеннолетних и преступления против этих прав в семье и обществе, причины их возникновения и условия, вызывающие эти преступления, а в целях предотвращения этих преступлений школьные психологи, родители в семье или их заменяющие лица, районный молодежные лидеры и инспекторы работают вместе.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, правонарушения, преступность.

Annotation: In the article, the rights of minors and crimes against these rights in the family and society, their causes and the conditions that cause these crimes and in order to prevent these crimes, school psychologists, parents in the family or the substitutes, neighborhood youth leader and inspector work together.

Key words: Minors, delinquency, crime.

"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi,
farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini
namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yartishdan iborat".

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
BMT Bosh Assambelyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.¹*

Taraqqiy etgan davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy rivojlanishlaridan bizga ma'lumki, voyaga yetmaganlarning huquqlariga qarshi jinoyatlarni oldini olish ustidan samarali jamoatchilik nazorati o'rnatilgan va bu o'z o'rnda huquqbazarlikni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni oldini olishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlar olib borildi, xususan, voyaga yetmaganlarning huquqi sohasida ham. Bugungi kunda voyaga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambelyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.

yetmaganlarning huquqlariga qarshi jinoyatlarni oldini olish davlat va jamiyat oldidagi muhim va ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

BMT Bosh Assambelyasi omonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1990-yil 2-sentabrda ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"²ning 2-moddasiga² binoan, "Ishtirokchi davlatlar ushbu konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, mulkiy, etnik yoki boshqa kelib chiqishlari, mulkiy ahvoli, bolaning sog'ligi va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biron bir boshqa shaxs holatlaridan qat'iy nazar hurmat qiladilar va bu huquqlarni ta'minlab beradilar" deb mustahkamlab qo'yilgan.

Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklari, avvalo, O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lmish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab o'tilgan. Bunga barcha insonlarga tegishli bo'lgan huquqlar yashash, sha'ni, qadr-qimmatining daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiysi, vijdon erkinligi va boshqa huquqlaridan tashqari kiradi. Amaldagi Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyag yetmaganlarning huquqlari davlat tomonidan muhofaza etilishi belgilangan. Va shu bilan bir qatorda, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning farzand ya'ni voyaga yetmagan shaxs oldidagi bir qator burch va majburiyatlari ham kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan XIV bobi, 77-moddasiga ko'ra ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, tarbiyalashi, ta'lif olishi, sog'gom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Shuningdek, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmagan shaxsning ushbu huquqiga to'sqinlik qilsa, Jinoyat kodeksi, V bob, 122-moddasiga ko'ra³ javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Ya'ni, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik - eng kam oylik ish haqqining ellik baravarigacha miqdorda jarimayoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yohud olti yilgacha qamoq bilan jazolanadi. O'sha qilmish xavfli redsidiivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yohud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan eng keng tarqalgan huquqbazarliklardan biri bu voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir etishga majburlash yoki undashdir.

Jinoyat kodeksining 127-moddasida belgilab o'tilganidek, voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop bo'lmagan lekin insonning aql-xushiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol qilishga jalb qilish jinoiy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa - eng kam oylik ish haqqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

² "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahalla yoshlar bilan ishlash tizimi tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarori

Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilishga jalg qilish - uch oydan olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalg etish, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) Ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs;
- b) Ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- c) O'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talablar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa jojylarda sodir etilishi –

Besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bugungi kunda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini oldini olishga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahalla yoshlar bilan ishslash tizimi tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarorig⁴a ko'ra yoshlar bilan ishslashning yangicha boshqaruva mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishslashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallada hal qilish, ta'lif muassalarida ma'naviy-marifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etildi. Yoshlar yetakchilariga mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning intellektual jihtdan kamol topishi, ma'naviy rivojlanishi ta'minlash va shu kabi bir qator boshqa vazifalar yuklatildi.

Mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakillik instituti tashkil etildi. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Respublika idoralalararo komissiyasi, Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, va Toshkent shahar hamda tuman(shahar) komissiyalari tashkil etildi. Sohaga oid huquqiy asoslar kuchaytirildi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquqlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish uchun muktab psixolog, ota-onalarning o'rnnini bosuvchi shaxslar va voyaga yetmagan shaxs o'rtaida "uchburchak" tashkil etish lozim. Ya'ni, muktab psixologining vakolati kengaytirilib, psixolog voyaga yetmagan shaxs bilan ishlashi uchun sharoit yaratib berish kerak. Chunki voyaga yetmagan shaxsning asosiy vaqtı muktabda o'tadi. Shuning uchun, uning huquqlariga qarshi jinoyatlarni oldini olish uchun psixolog va bola o'rasiда bevosita aloqa o'rnatish kerak. O'z navbatida, muktab psixologi ota-onalarning ham aloqa o'rnatishi lozim. Shundagina voyaga yetmagan shaxsning huquqlariga nisbatan bo'layotgan tajovuzlarga qarshi kurashishimiz mumkin.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoyat uchun belgilangan jazoni og'irlatish kerak. Qonunchilikda belgilangan jazo zo'ravonlarga sudlanganidan keyin ham bolalar bilan takroran shunday qilmishlarni sodir etish va yengil

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahalla yoshlar bilan ishslash tizimi tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarori

jazo bilan qutulib ketish imkonini beradi. Shu bois, Jinoyat kodeksi 127-moddasini qayta ko'rib chiqish voyaga yetmaganlarni himoya qilish sohasidagi qonunchiligidizni takomillashtirishga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T O'zbekiston ,2023 y
2. "Bola huquqlari to'g'risida konvensiya". BMT Bosh Assambelyasi 1989-yil 20-novabr
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- 4."Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdab takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-92-son Qarori. 2022-yil 19-yanvar